



INGLIZ TILINI O'QITISHDA INNOVATSION METODLARIDAN FOYDALANISH MASALASI

Xaitova A'loxon Ilyosbek qizi

Andijon mashinasozlik instituti akademik litsey ingliz tili fani o'qituvchisi.

Annotatsiya: Umumta'lim mакtablarida ingliz tilini turli sinflar doirasida o'quvchilarni yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda , ulardagi chet tilini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish va ehtiyojlarini to'liq qondirishga yordam beruvchi pedagogik innovatsion texnologiyalarga asoslangan zamonaviy dars ishlanmalar yordamida dars o'tish o'quvchilarda tilni o'rganish uchun yuqori samara beradi.

Kalit so'zlar: ingliz tili darslari, ijodiy faoliyat, innovatsiya, grammatika, ingliz tili, o'qitish, zamonaviy dars..

Abstract: English is taught in general education schools in different classes, taking into account the age and psychological characteristics of students, using modern lesson developments based on pedagogical innovative technologies that help to fully satisfy their interest and needs in learning a foreign language. It is highly effective for language learning in dental students.

Keywords: English lessons, creative activity, innovation, grammar, English language, teaching, modern lesson.

KIRISH

Hozirgi kunda ingliz tili darslarini o'qitish jarayonida o'quvchilarga dars mashg'ulotlarini tushunarli qilib yetkazib berish ularnni erkin fikrlay olishga, o'rgangan narsalarini yodda saqlashlari uchun o'qituvchilar kreativ bo'lib, dars mashg'ulotlarini turli ko'rinishdagi innovatsion metodikalar bilan o'tishi kerak.

XVIII asrgacha ayrim olimlar chet tilini o'qitish metodikasini qiyosiy tilshunoslikning amaliy tadbig'i idir deb qarasalar, boshqalar uni pedagogika fani deb hisobladilar.



Hozirgi davrda chet tilini o‘qitish metodikasiga chet tillarni o‘qitishning maqsadlari, mazmuni, qonuniyat, metod, vositalari, yo‘l va usullar, o‘qitish tizimini o‘rganish hamda o‘rgatish bilan shug‘ullanuvchi, uni rejalashtiruvchi, shuningdek, chet tili orqali o‘quvchilarni tarbiyalash jarayonlarini amalga oshiruvchi fan sifatida qaralmoqda. Metodikaning fan sifatida shakllanishi hamda rivojlanishida pedagogika, psixologiya, tilshunoslik kabi fanlar bilan aloqasi muhim bo‘lmokda. Chet tili o‘qitish metodikasi barcha fanlar kabi shug‘ullanish predmeti, obyekti, ilmiy-tadqiqot uslubi, metodik tushunchalari va metodologik asosiga ega.

Chet tilini o‘qitish metodikasining nazariy asosi o‘z oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi:

1. Hozirgi davr chet tili o‘qitish metodikasi maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida metodikaning asosiy qismlarini yoritish va uning asosida o‘quvchi, talablarga ta’lim berish.
2. O‘quvchi talabalarga chet tili o‘rgatishning ilg‘or metod va usullarini tanishtirish.
3. Hozirgi davr metodikasining tarkibiy qism, vositalarini yoritish.
4. O‘qituvchilarning ilg‘or tajribalarini o‘rganish.
5. Seminar mashgulotlari orqali mutaxassislik uchun zarur malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish.
6. Bo‘lajak o‘qituvchilarni maxsus ilmiy-metodik adabiyotlar bilan ishlashga o‘rgatish orqali o‘z kasbi ustida mustaqil shug‘ullanishga, ilmiy ishlarga tayyorlash.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bugungi kunda yosh avlodning, ayniqsa ingliz-tlini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi ortib bormoqda. umumta’lim maktablarida xorijiy tilni chuqurroq o‘rgatish uchun, pedagog xodimlardan innovatsion usullardan keng foydalanish talab etilmoqda Shu sababdan, 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida"gi hamda 2013—2014 yildan boshlab umumta’lim maktablarining birinchi sinflarida xorijiy tillarni uzluksiz o‘rgatishning joriy etilishi buning yaqqol isbotidir. Ingliz tili jahon tili sifatida deyarli barcha sohalarda eng



kerakli til sifatida namoyon bo'lmoqda, shu sababli nafaqat boshlang'ich sinflarda, iqtisodiy, fan, va madaniy jihatdan rivojlangan davlarlarning tillarini o'rganish jahon ilm-fani va taraqqiyoti yutuqlarini egallashning bosh omili ekanligini to'liq anglagan holda yuqori sinf o'quvchilari doirasida ham kasb tanlashlarida albatta tilning ahamiyatiga katta e'tibor qaratilmoqda. Boshqa sohalar singari til o'rganish ham o'quvchi yoshlarning zehni bilan birgalikda yosh davrlariga ham bog'liq.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Shuni e'tiborga olish kerakki, 6-7 yoshli bolalar ma'lumotlar ma'nosini tushunib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishni grammatik tushuncha berishdan boshlamaslik zarur. Aks holda chet tilini o'rgatishning dastlabki qadamidanoq bolani zo'riqtirib qo'yish va qiziqishini so'ndirib qo'yish mumkin. Shunday ekan, kichik yoshdagি bolalarga xorijiy tilni o'rgatish ancha mushkul va mas'uliyatli. Bolalarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

Qo'shiq va she'rlar orqali tushuntirish yoki esda qolishi qiyin bo'lgan, ma'noga ega bo'limgan harf yoki birikmalarni kuyga solib o'rgatish.

Bunga misol qilib, bolalarning ingliz tili alifbosini qo'shiq qilib o'rganishlari shunchaki yodlashdan ko'ra samarali ekanligini ko'rsatish mumkin.

- aqliy va jismoniy harakatlar bilan bo'g'liq bo'lgan o'yinlar;
- multfilmlar;

Bolalar til o'rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunmasada, multfilm qahramonlarining harakatlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishga intiladi. Bu esa bolalar uchun qiziq va til o'rganishlari uchun samarali yo'l.

O'qituvchi mavzusiga qarab o'sha muhitni yaratib bera olsa, bolalar tilni yaxshi o'rganishadi. Masalan: traveling, birthday, in the kitchen va boshqalar. Traveling(sayohat) mavzusida o'qituvchi sayohat uyushtirishi, sayohatga qanday vositalar orqali (foot, bicycle, automobile, train, boat, airplane) borish mumkinligi, qayerlarga sayohat qilish(Tashkent, Samarkand, Bukhara, England, USA) muhimligi



haqida ma'lumot beradi. Bu hol o'quvchilarning so'z boyligini, til imkoniyatlarini kuchaytiradi, dunyoqarashini o'stiradi.

Ta'kidlash lozimki, o'yin eng avallo, o'qitishning bir usulidir.O'quvchi inglizcha o'yin o'ynab, gapira olarkanman, tinglab tushuna olarkanman, yoza olarkanman, deb qiziqadi.

Ingliz tilini o'qitishdagi yana bir muhim jihat shuki o'quvchining qay holatda ma'lumotni to'laqonli qabul qilishini nazorat qilish. Bir guruhdagi bolalarning o'y xayollari, fikrlashi, dunyoqarashi ma'lumotni qabul qilishi turlicha bo'ladi. Shunga ko'ra o'qituvchi har bir o'quvchining xarakteri xususiyatidan kelib chiqqan holda ta'lim jarayonini olib borishi kerak. Misol uchun, qaysidir o'quvchida ko'z bilan eslab qolish, yana birida eshitish orqali eslab qolish qobiliyati tabiatdan shakillangan bo'lishi mumkin. Shu xususiyatlarga ko'ra ingliz tilini o'rganish asosiy 3 yo'nalishda bo'ladi S Visual learning- ko'rish orqali ma'lumotni eslab qolish S Auditory learning - eshitish orqali ma'lumotni eslab qolish S Kinaesthetic learning- harakatlar orqali ma'lumotni eslab qolish Yuqoridagi xususiyatlarni inobatga olgan holda o'qituvchi o'quvchilar bilan dars mobaynida, mashqlar bajarishda, rol playlar tayyorlashda,o'yinlar orqali mavzu tushintirilsa yoki tashkillashtirilsa sezilarni natija hosil qiladi va o'quvchida til o'rganishga motivatsiya beradi.O'qituvchi har doim o'quvchining harakterini bilishi kerak

XULOSA

Umumta'lim maktablarida ingliz tilini turli sinflar doirasida o'quvchilarni yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda , ulardagи chet tilini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish va ehtiyojlarini to'liq qondirishga yordam beruvchi pedagogik innovatsion texnologiyalarga asoslangan zamonaviy dars ishlanmalar yordamida dars o'tish o'quvchilarda tilni o'rganish uchun yuqori samara beradi.O'qituvchi qanchalik kreativ va ijodkor bo'lib darsni tashlik etsa hamma o'quvchi darsni maroq va qiziqish bilan o'rganadi.Ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilari rasmiли va o'yinli harakatli darslarni qiziqib o'rganadi va tezda yodida saqlab qoladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Islom Abdug'aniyevich Karimovning 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli qarori.
2. Hoshimov O'. H, Yakubov I.Y.A. Ingliz tili o'qitish metodikasi-Toshkent-2003-yil.
3. <http://www.ziyonet.uz>.
- 4..Botiraliyeva, A. M., & Zaylobiddinovich, A. E. (2023). TECHNOLOGY FOR DIAGNOSING STUDENTS'COMPETENCE IN WORKING WITH INFORMATION BASED ON ELECTRONIC EDUCATIONAL RESOURCES. IMRAS, 6(7), 370-375.
- 5..Kadyrov, V. A., Botiraliyeva, A. M., & Axunov, U. R. (2022). THEATRE OF ACTION-A DIDACTIC CONCEPT FOR THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL EDUCATION AND CREATIVITY. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(5), 960-963.
- 6..Artikova, M. (2021). DEMAND FOR A COMPETENCY-BASED APPROACH TO THE ACTIVITIES OF TEACHERS IN MODERN CONDITIONS. InterConf.
- 7..Artikova, M. B. (2019). EXPERIENCE IN DEVELOPING ENTREPRENEURSHIP SKILLS IN FOREIGN COUNTRIES. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(7), 250-255.
- 8..Mirzayev, O. K. (2024). HISTORICAL AND PEDAGOGICAL ASPECTS OF THE FORMATION OF ELEMENTARY ENTREPRENEURIAL SKILLS OF CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATION. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 5(02), 167-171.
- 9..Xusanovich, M. O. (2021). Formation Of Elements Of Entrepreneurial Activity In Pupils Of The Preschool Educational Organization. JournalNX, 1, 265.
- 10.Mirzaev, O. (2022). The role of ethics and aesthetics in the formation of entrepreneurial relations between individuals. Science and innovation, 1(B6), 125-130.